



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta’siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug’urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta’siri.....	153
Mirzayeva L.S. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo‘llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo’stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo’stonova N.A., Nematjonova R.D. O‘zbekistonda aholining daromadlari va iste’mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta’siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo‘yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro‘li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta’minlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rni.....	221
Mamatov B.S. O‘zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta’minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o‘rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar..	272

YASHIL TADBIRKORLIK VA UNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI

ЗЕЛЁНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ЕГО МЕСТО В ЭКОНОМИКЕ

GREEN ENTREPRENEURSHIP AND ITS PLACE IN THE ECONOMY

Faxriddinova Nozima Nuritdin qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi, 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada yashil tadbirkorlik tushunchasi, uning asosiy tamoyillari hamda zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Yashil tadbirkorlik atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga qaratilgan innovatsion biznes faoliyati bo‘lib, u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Maqolada ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish kabi yo‘nalishlarning iqtisodiy o‘rishga qo‘shayotgan hissasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qayta tiklanadigan energiya, organik qishloq xo‘jaligi, innovatsion rivojlanish, yashil tadbirkorlik, innovatsiya, resurs tejamkorlik.

В данной статье анализируется понятие зелёного предпринимательства, его основные принципы, а также место в современной экономике. Зелёное предпринимательство представляет собой инновационную хозяйственную деятельность, направленную на снижение негативного воздействия на окружающую среду и является важным инструментом достижения целей устойчивого развития. В статье раскрываются направления, такие как экологически чистые технологии, возобновляемые источники энергии, эффективное использование ресурсов и сокращение отходов, и их вклад в экономический рост.

Ключевые слова: Возобновляемая энергия, органическое сельское хозяйство, инновационное развитие, зелёное предпринимательство, инновации, ресурсосбережение.

This paper analyzes the concept of green entrepreneurship, its main principles, as well as its place in the modern economy. Green entrepreneurship represents innovative economic activity aimed at reducing negative environmental impacts and is an important tool for achieving sustainable development goals. The study explores areas such as environmentally friendly technologies, renewable energy sources, efficient resource use, and waste reduction, and their contribution to economic growth.

Keywords: renewable energy, organic farming, innovative development, green entrepreneurship, innovation, resource conservation.

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolarning kuchayishi jahon hamjamiyatini yangi iqtisodiy modelga o‘tishga undamoqda. An‘anaviy iqtisodiy faoliyat ko‘pincha atrof-muhitga zarar yetkazgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar iqtisodiy o‘rishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil tadbirkorlik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil tadbirkorlik — bu ekologik xavfsiz mahsulot va xizmatlarni yaratish, resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir. U quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, biomassa);
- chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish;
- ekologik toza qishloq xo‘jaligi;

- energiya va suv tejankor texnologiyalar;
- “yashil” qurilish va transport tizimlari. [1]

Bu faoliyat turi foyda olish bilan birga ekologik mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi.

Global miqyosda davlatlar va xalqaro tashkilotlar yashil iqtisodiyot va yashil tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid siyosatlarni ilgari surmoqda. Masalan, OECD mamlakatlari maxsus moliyaviy instrumentlar, inkubatsiya dasturlari va siyosat tahlillari orqali yashil startaplar uchun qulay sharoit yaratishga intilmoqda, chunki bu tadbirkorlik shakli atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish imkonini beradi [2].

Shu bilan birga, yashil tadbirkorlik oddiy biznes amaliyotidan ustun bo‘lib, u ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni birlashtiradi, ya’ni barqaror iste’mol va ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlab, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida yashil tadbirkorlik iqtisodiy o‘shning yangi manbai sifatida baholanadi [3]. Ular yashil sohalarga investitsiyalar kiritish yangi ish o‘rinlari yaratishi, energiya xavfsizligini mustahkamlashi va uzoq muddatli barqaror o‘shni ta’minlashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat siyosati, soliq imtiyozlari va ekologik standartlar yashil biznes rivojlanishida muhim omil sifatida qayd etiladi.

Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlarda esa asosiy e’tibor rivojlanayotgan davlatlarda yashil tadbirkorlikni joriy etish muammolariga qaratilgan. Xususan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, ekologik madaniyatning yetarli emasligi va texnologik bazaning sustligi asosiy to’siqlar sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi, qayta tiklanuvchi energetika va chiqindilarni qayta ishlash sohalari katta imkoniyatlarga ega ekani ta’kidlanadi — bu jihatlar O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ham ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolarning kuchayishi an’anaviy iqtisodiy o‘sh modelining cheklanganligini ko‘rsatmoqda. Shu sharoitda iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhit muhofazasi bilan uyg‘unlashtira oladigan yangi yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yashil tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

- yashil texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli moliyaviy resurslarning mavjud emasligi;
- tadbirkorlar orasida ekologik bilim va ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi.

Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotlar nazariy jihatdan yashil tadbirkorlikning afzalliklarini yoritgan bo‘lsa-da, uni milliy iqtisodiyot sharoitida, xususan O‘zbekiston misolida rivojlantirishning aniq yo‘llari va iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — yashil tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sh va ekologik barqarorlik o‘rtasida samarali muvozanatni ta’minlash yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Yashil tadbirkorlik (Green Entrepreneurship) bugungi kunda barqaror rivojlanishning drayveri hisoblanadi. Yashil tadbirkorlik jahon ekologik, balki strategik va iqtisodiy bog‘liqlikni kuchaytiruvchi asosiy omilga aylandi. Bu bog‘liqlik quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Global savdo va "Yashil" standartlar. Jahon savdosida ekologik toza mahsulotlarga talab ortishi davlatlar o‘rtasidagi eksport-import aloqalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Yashil savdo: Davlatlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish vositasi sifatida yashil savdoni rivojlantirmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining "Green Deal" dasturi doirasidagi talablar boshqa davlatlardagi tadbirkorlarni ham o‘z ishlab chiqarishini "yashillantirishga" majbur qiladi.

2. Texnologiyalar transferi va hamkorlik. Rivojlangan davlatlar (Yaponiya, AQSh, YeI) va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida yashil texnologiyalar transferi bo‘yicha faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. OECD platformasi kabi tuzilmalar yashil tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro tajriba va innovatsion yechimlarni baham ko‘rishga xizmat qiladi. Jahon banki va YeTTB kabi xalqaro moliya institutlari yashil loyihalarni moliyalashtirish orqali davlatlararo moliyaviy bog‘liqlikni ta’minlamoqda [3].

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Nazariy manbalar va xalqaro tajribalar tahlili asosida quyidagi natijalarga kelindi:

Birinchidan, yashil tadbirkorlik an’anaviy biznesga nisbatan uzoq muddatda yuqori samaradorlikni ta’minlashi aniqlangan. Dastlabki investitsiya xarajatlari yuqori bo‘lishiga qaramay, energiya va resurs tejamkor texnologiyalar ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi hamda korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi [4] Ikkinchidan, yashil sohalarning rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Xususan, qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida bandlik darajasining oshishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi.

Uchinchidan, ekologik yo‘naltirilgan tadbirkorlik faoliyati atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga yordam beradi. Atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdorining qisqarishi, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish kabi ko‘rsatkichlar yashil biznesning ekologik samaradorligini tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil tadbirkorlikning rivojlanishi ko‘p jihatdan davlat siyosatiga bog‘liq. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, ekologik standartlar va “yashil” moliyalashtirish mexanizmlari mavjud bo‘lgan sharoitda bu soha tezroq rivojlanadi.

O‘zbekiston sharoitida o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa quyosh energetikasi, suvni tejovchi texnologiyalar va qishloq xo‘jaligida organik ishlab chiqarish yo‘nalishlari yashil tadbirkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477- sonli qarori 2019-2030-yillar davrida mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqladi. [4] Hujjatning asosiy maqsadi energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va issiqxona gazlari ajratmalarini 2010-yildagiga nisbatan 10 foizga qisqartirishdan iborat.


Asosiy yo‘nalishlari:

Energiya samaradorligi. Iqtisodiyot tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish.

Ekologik toza transport. Elektr transportini rivojlantirish va ekologik yoqilg‘i ishlab chiqarishni kengaytirish.

Resurslarni tejash. Suv va yer resurslaridan samarali foydalanish texnologiyalarini joriy etish.

"Yashil" investitsiyalar. Ekologik xavfsiz loyihalarni moliyalashtirish va xususiy sektor ishtirokini qo‘llab-quvvatlash.



1-rasm. O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste’moli

Qaror ekologik toza va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun "yashil" o'sish tamoyillarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yashil tadbirkorlik iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi. U resurslardan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish va atrof-muhit muhofazasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishning muvaffaqiyatli rivojlanishi davlat qo'llab-quvvatlovi va tadbirkorlarning ekologik mas'uliyatiga bevosita bog'liq.

Umuman olganda, yashil tadbirkorlikni izchil rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, kelajak avlodlar uchun sog'lom ekologik muhitni saqlashga ham xizmat qiladi.

O'zbekistonning umumiy iste'molida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (QTEM) ulushi keskin o'sib bormoqda:

2022-yil: 15%

2023-yil: 20%

2024-yil: 25%

2030-yil (prognoz): 54%

So'nggi 3 yilda ulush har yili o'rtacha 5% ga oshgan. 2030-yilga borib energiya balansining yarmidan ko'pini "yashil" manbalar tashkil etishi kutilmoqda.

2022 yilda gaz qazib olish 53,8 mlrddan 51,67 mlrd kub metrgacha yoki 4 foizga, 2023 yilda esa 51,67 mlrddan 46,71 mlrd kub metrgacha yoki 9,6 foizga qisqargandi. Statistika raqamlariga qaraydigan bo'lsak, oxirgi 7 yilda gaz qazib olish qariyb 28 foizga yoki 17 mlrd kub metrga kamaygan. 2024 yilda ko'mir qazib olish 7 mln 166 ming tonnani tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 26,2 foizga oshgan[6].

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston an'anaviy gazga qaramlikni kamaytirib, 2030-yilga qadar energiya mustaqilligini qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga ta'minlashni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. Green Growth Strategy: Enabling the Transition to a Green Economy. OECD Publishing, 2017.
2. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. World Bank Publications, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4 oktyabrdagi "2019-2030- yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy materiallari va hisobotlari.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>.
6. <https://kun.uz/news/2025/02/03/2024-yilda-ozbekistonda-gaz-neft-va-benzin-ishlab-chiqarish-kamaydi>